

«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
YAGONA AKSIYADORINING
QARORIDAN KO‘CHIRMA

2024 yil «28» iyun

№ 06/1

Toshkent sh.

Navbatdagi yillik 2023 yil yakuni yuzasidan

...
...
...

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozimligi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, Bank Ustavi va “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq ushbu qaror quyidagi masalalar yuzasidan qabul qilindi:

1. Bank Kuzatuv kengashining 2023 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini eshitish.
2. Bank Boshqaruving 2023 yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.
3. Bankning 2023 moliyaviy yil yakuni bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobotini tasdiqlash.
4. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
5. “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi a’zolariga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risida nizomni tasdiqlash.
6. Bankning kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida affillangan shaxslar bilan bitimlarni (yirik bitimlar bundan mustasno) kelgusida bank tomonidan mustaqil amalga oshirish uchun Yagona aksiyadorning keyingi navbatdagi yillik qarorigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) bitimlarni ma’qullash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan bank Kuzatuv kengashi hisoboti tinglandi.

...

Kun tartibining birinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

- 1.1. Bank Kuzatuv kengashining 2023 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti tasdiqlansin (1-ilova).
- 1.2. Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga omonatchilar, kreditorlar hamda Yagona aksiyador manfaatlarini himoyalash maqsadida bankning aktivlari, majburiyatlar va 2023 yil Biznes-rejasi ijrosini tahlil qilgan holda bank Boshqaruvi faoliyatini muntazam kuzatib

borish, har chorakda bank Boshqaruvi hamda Ichki audit boshqarmasi faoliyati yakunlari to‘g‘risidagi hisobotlarini tinglab, tegishli qarorlar qabul qilish va ularning ijrosi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatish vazifalari topshirilsin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan bank Boshqaruv raisi A.To‘rayev hisoboti tinglandi.

...

Kun tartibining ikkinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

2.1. Bank Boshqaruvining 2023 yil faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti tasdiqlansin (2-ilova).

2.2. Bank Boshqaruviga zimmasiga:

bankning rivojlanish strategiyasi ijrosini tashkil qilish;

bankda zamонавиу bank mahsulotlari va xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish, interaktiv xizmatlar, virtual plastik kartalar orqali amaliyotlarni kengaytirish va takomillashtirish;

aholi orasida reklamalarni bankning veb-sahifasi, ijtimoiy tarmoqlar va yuqori reytingli ommaviy axborot vositalariga joylashtirish;

biznes-rejasni ijrosini tashkil qilish hamda rentabellik ko‘rsatkichlarini yuqori reytinglariga erishish vazifalari topshirilsin.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan bank Bosh buxgalteri O.Utamurotov hisoboti tinglandi.

...

Kun tartibining uchinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

3.1. Bankning 2023 moliyaviy yil yakuni bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisoboti ma’ulumot uchun qabul qilinsin (3-ilova).

3.2. Bankning 2023 yillik hisoboti, buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash hamda foydani taqsimlash ijobiy mustaqil audit xulosa olinganidan so‘ng Yagona aksiyadorning navbatdan tashqari qarorigacha qoldirilsin.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala yuzasidan bankning tashkiliy tuzilmasi ko‘rib chiqildi.

...

Kun tartibining to‘rtinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

4.1. Bankning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin (4-ilova).

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi a’zolariga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom ko‘rib chiqildi.

...

Kun tartibining beshinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

5.1. “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi a’zolariga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom tasdiqlansin (5-ilova).

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan Bankning kundalik xo‘jalik faoliyatini

yuritish jarayonida affillangan shaxslar bilan bitimlarni (yirik bitimlar bundan mustasno) kelgusida bank tomonidan mustaqil amalga oshirish uchun Yagona aksiyadorning keyingi navbatdagi yillik qarorigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) bitimlarni ma’qullash ko‘rib chiqildi.

...

Kun tartibining oltinchi masalasi yuzasidan Yagona aksiyador qaror qiladi:

6.1. Bankning kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida affillangan shaxslar bilan bitimlarni (yirik bitimlar bundan mustasno) kelgusida bank (bank Boshqaruvi) tomonidan mustaqil amalga oshirish uchun Yagona aksiyadorning keyingi navbatdagi yillik qarorigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan (kutilayotgan) bitimlar ma’qullansin (6-ilova).

7. Mazkur qarorning ijrosini ta’minalash bank Boshqaruvi zimmasiga topshirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish vazifasi bank Kuzatuv kengashiga yuklatilsin.

Yagona aksiyador nomidan,

“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

Ko ‘chirma asligi to ‘g ‘ri:



T.Nurmuratov